

XITOYNING 'BIR MAKON, BIR YO'L' TASHABBUSI: MARKAZIY OSIYO BILAN STRATEGIK SHERIKLIKNING YANGI BOSQICHI VA IQTISODIY ISTIQBOLLARI

Jabborova Zilolaxon Kamoliddin qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy universiteti 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbari: Umarov Xayrulla Payzullaevich

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoy Xalq Respublikasining global miqyosdagi eng yirik strategik loyihasi – “Bir makon, bir yo’l” (BRI) tashabbusining Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O’zbekiston bilan munosabatlaridagi o’rni tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida loyihaning 2013-yildan buyon rivojlanish dinamikasi, investitsion ko’lami va mintaqaviy xavfsizlikka ta’siri ko’rib chiqilgan. Maqolada “O’zbekiston – 2030” strategiyasi va BRI tashabbusining o’zaro uyg’unligi, transport-logistika koridorlarining kengayishi hamda sanoat kooperatsiyasi masalalari ilmiy-amaliy jihatdan baholangan. Shuningdek, mintaqa davlatlari uchun yuzaga kelayotgan iqtisodiy imkoniyatlar bilan bir qatorda, “qarz tuzog’i” va strategik avtonomiya kabi geosiyosiy xatarlar ham siyosatshunoslik nuqtai nazaridan kompleks tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: *Bir makon, bir yo’l, Markaziy Osiyo, O’zbekiston – 2030, investitsiya, transport logistikasi, iqtisodiy diplomatiya, geosiyosat, qarz tuzog’i, strategik sheriklik.*

Abstract: *This article analyzes the role of the largest global strategic project of the People's Republic of China - the "One Belt, One Road" (BRI) initiative - in relations with the Central Asian region, in particular with Uzbekistan. During the study, the project's development dynamics, investment scale and impact on regional security since 2013 were examined. The article scientifically and practically assesses the compatibility of the "Uzbekistan - 2030" strategy and the BRI initiative, the expansion of transport and logistics corridors, and industrial cooperation. In addition, along with the emerging economic opportunities for the countries of the region, geopolitical risks such as the "debt trap" and strategic autonomy are also comprehensively analyzed from the perspective of political science.*

Keywords: *One Belt, One Road, Central Asia, Uzbekistan - 2030, investment, transport logistics, economic diplomacy, geopolitics, debt trap, strategic partnership.*

"Bir makon, bir yo’l" (Belt and Road Initiative – BRI) tashabbusi XXRning zamonaviy tashqi iqtisodiy strategiyasi va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdagi eng ustuvor loyihasi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda va siyosiy doiralarda ushbu konsepsiya dastlab "Bir kamar, bir yo’l" (OBOR) yoki "Ipak yo’li iqtisodiy kamari va XXI asr dengiz Ipak yo’li" terminlari bilan ham yuritilgan. Global miqyosda

mazkur loyiha "Yangi ipak yo'li" sifatida e'tirof etilib, xitoy tilida "Yidai Yilu" (一带一路) deb nomlanadi. Ushbu strategiyaning tamal toshi 2013-yilning oktyabr oyida Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning Qozog'istonga rasmiy tashrifi davomida qo'yilgan bo'lib, u mintaqaviy integratsiya va iqtisodiy hamkorlikning yangi modelini taklif etdi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yil mart oyida 146 ta mamlakat va 32 ta xalqaro tashkilot BRI uchun hamkorlik shartnomalarini imzolagan. Mamlakatlar va tashkilotlarning BRIga "qo'shilishi" uchun Xitoy va tegishli mamlakat yoki tashkilot O'zaro anglashuv memorandumini (MOU) imzoladilar. Xitoyning rasmiy ommaviy axborot vositalarida (yidaiyilu.gov.cn) bir qator mamlakatlar ro'yxati keltirilgan bo'lib, ular "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi doirasida hamkorlik qilish bo'yicha to'liq MOU imzolaganliklarini tasdiqlamagan. Bularga, masalan, Rossiya, Avstriya, Kongo Demokratik Respublikasi, Dominika, Niger va Benin kiradi.

2013-yildan 2021-yilning dekabriga qadar bo'lgan davr mobaynida Xitoy Xalq Respublikasining "Bir makon, bir yo'l" (BRI) tashabbusi doirasidagi moliyaviy ishtiroki salmoqli darajaga yetdi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, loyihada ishtirok etuvchi mamlakatlarga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va qurilish shartnomalarining umumiy qiymati taxminan 890 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

Ta'kidlash joizki, ushbu loyihalarning aksariyati Xitoyning yirik davlat moliya institutlari tomonidan kreditlash va moliyalashtirish mexanizmlari orqali amalga oshirildi. Bu esa, o'z navbatida, tashabbusning nafaqat geosiyosiy, balki global miqyosdagi eng yirik iqtisodiy dastur ekanligini tasdiqlaydi.

Bugungi globallashtirish sharoitida Markaziy Osiyo mintaqasi Xitoy tashabbusi doirasida Sharq va G'arbni bog'lovchi strategik "ko'priklar hudud" sifatida qaralmoqda, bu esa mintaqada davlatlari uchun yangi imkoniyatlar bilan birga, yangi chaqiriq va xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, transport-logistika koridorlarining kengayishi, energetika infratuzilma tarmoqlarining integratsiyalashuvi, sarmoyalar oqimining ortishi iqtisodiy rivojlanish, raqobatbardoshlik va bandlik darajasini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, tashabbus doirasida yuzaga kelayotgan qarz majburiyatlari, iqtisodiy qaramlik (iqtisodiy jihatdan bir tomonlama bog'liqlik), siyosiy ta'sirning kuchayishi kabi omillar mintaqada davlatlarining strategik avtonomiyasi va milliy manfaatlari uchun muayyan xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi uchun "Bir makon, bir yo'l" tashabbusining dolzarbligi, avvalo, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi maqsadlari bilan bevosita uyg'unligida namoyon bo'ladi. Mazkur strategiyada transport va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xalqaro savdo yo'laklarida yuqori o'rin

egallash, investitsiya muhitini yaxshilash va iqtisodiy o'sishni jadallashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusini "O'zbekiston - 2030" strategiyasi bilan bog'lash bo'yicha alohida hamkorlik dasturining qabul qilinishi O'zbekiston tashqi siyosatida ko'p vektorli (bir nechta yirik hamkorlar bilan muvozanatli aloqalar olib borish) yondashuvni amaliy jihatdan ro'yobga chiqarishining yaqqol ifodasidir. Markaziy Osiyo mintaqasiga 2025-yilning birinchi yarmida "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida 25 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb etilgani ushbu tashabbusning iqtisodiy ko'lami va ta'sir darajasini ko'rsatib bermoqda .

Bu jarayonda Qozog'iston eng yirik sarmoya oluvchi davlat sifatida ajralib turgan bo'lsa-da, O'zbekiston ham transport yo'laklari va sanoat kooperatsiyasi loyihalari orqali mintaqaviy ulanishlar markazlaridan biriga aylanib bormoqda. Shu sababli "Bir makon, bir yo'l" tashabbusining Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari, ayniqsa O'zbekiston bilan munosabatlaridagi o'рни va mexanizmlarini siyosatshunoslik nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifadir. Bu tahlil mintaqada yangi geosiyosiy konfiguratsiyalar, kuch markazlari o'zgarishi hamda iqtisodiy diplomatiya vositalarining evolyutsiyasini chuqur anglash imkonini beradi.

Markaziy Osiyo bo'yicha aniq misollarni tahlil qilgan tadqiqotlar ham mavjud. Masalan, Jahon banki va boshqa xalqaro institutlar tomonidan tayyorlangan hisobotlarda Tojikiston va Qirg'izistonning Xitoy oldidagi qarz yukining yuqori darajaga yetgani qayd etilar ekan, bu holat "qarz tuzog'i" (debt trap) muammosi sifatida muhokama qilinadi . Shu bilan birga, Qozog'iston bo'yicha nashrlarda Xitoy investitsiyalarining sanoat va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilishdagi ijobiy ta'siri bilan bir qatorda, mahalliy jamoatchilik orasidagi xavotirlar - ekologik xatarlar, mehnat resurslari va yer masalalariga oid bahslar ham alohida qayd etiladi .

O'zbek tilidagi ilmiy adabiyotlar orasida L.B. Allayorovaning "Bir makon, bir yo'l" loyihasi tashabbusining O'zbekiston uchun ahamiyati haqidagi maqolasi muhim o'rin tutadi, unda muallif O'zbekistonning ushbu tashabbus doirasidagi ishtirokini transport-tranzit salohiyatini oshirish, logistika markazlarini rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasi nuqtai nazaridan baholaydi . Allayorova, shuningdek, Xitoy sarmoyalarining O'zbekiston iqtisodiyotiga kirib kelishi eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish imkonini berishini ta'kidlasa-da, uzoq muddatli qarz majburiyatlari va raqobatbardoshlik bilan bog'liq xatarlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. O'zbek olimlaridan A. Yaxshiboev va hamkorlari Markaziy Osiyo geosiyosiy jarayonlari haqidagi tadqiqotlarida Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusini mintaqaviy transport va energetika infratuzilmasini qayta konfiguratsiya qiluvchi "asosiy tashqi vektor" sifatida baholab, O'zbekiston

uchun bu tashabbusning ijobiy tomoni sifatida xalqaro bozorga chiqish yo'llarining kengayishi, salbiy tomoni sifatida esa iqtisodiy qaramlik xavfining ortishi bilan izohlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Xitoy tomonidan 2013-yilda ilgari surilgan "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi 2021-yil yakunlariga ko'ra, ushbu loyiha doirasida yo'naltirilgan sarmoyalar hajmining qariyb 890 milliard dollarga yetishi tashabbusning global miqyosdagi mislsiz ko'lamidan dalolat beradi. Mazkur jarayonda Qozog'iston yirik investitsiyalarni jalb qiluvchi asosiy davlat sifatida ajralib turgan bo'lsa-da, O'zbekiston o'zining geografik joylashuvi va yangilangan tashqi siyosati tufayli mintaqaviy strategik markaziga aylanib bormoqda. Ayniqsa, "Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston" temir yo'li kabi yirik transport loyihalari mintaqada davlatlari uchun jahon bozorlariga chiqishda eng qisqa va arzon yo'laklarni ochib bermoqda. Bu esa o'z navbatida, iqtisodiy hamkorlikni faqatgina xomashyo yetkazib berish bosqichidan yuqori texnologiyali sanoat kooperatsiyasi va "yashil" energetika bosqichiga olib chiqdi. Siyosatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, ushbu hamkorlik mexanizmlari mintaqada yangi kuchlar muvozanatini shakllantirib, iqtisodiy diplomatiya vositalarining yanada pragmatik shaklga kelishini ta'minlamoqda. Xulosa qilib aytganda, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasidagi strategik sheriklik Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston uchun barqaror iqtisodiy o'sish va xalqaro maydondagi nufuzini oshirishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'XATI:

1. About the Belt and Road Initiative (BRI), <https://greenfdc.org/belt-and-road-initiative-about/>;
2. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi va "Bir makon, bir yo'l" tashabbusini o'zaro bog'lash bo'yicha hamkorlik dasturi haqida maqola. - Gazeta.uz, 2025-yil 1-sentabr. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/09/02/bitim/> ;
3. "The Belt & Road Initiative - Tajikistan Country Case Study". - World Bank, 2024;
4. "Central Asia Attracts \$25 Billion, as China's Belt and Road Investment Hits Half-Year Record". - The Astana Times, 2025-yil 18-iyul. <https://astanatimes.com/2025/07/central-asia-attracts-25-billion-as-chinas-belt-and-road-investment-hits-half-year-record/>;
5. Allayorova L.B. "Bir kamar, bir yo'l" loyihasi tashabbusining O'zbekiston uchun ahamiyati. - "Oriens" ilmiy jurnali, maxsus son. https://oriens.uz/media/journalarticles/100_Allayorova_Leylo_Bahodirovna_679-688.pdf ;



6. Yaxshiboev, A. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Markaziy Osiyo: geosiyosiy va geo iqtisodiy jarayonlar tahlili. – Toshkent: Sharq, 2024. – B. 120–138
<https://aps.tsuos.uz/storage/users/151/articles/wP3KMJcNNiOGGmOuaNwM2AIKKrSUz6wiic67RQnG.pdf>.